

**ZUBTURUMNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARINI TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI.**

*Abdurazzoqova Hilola G'ayrat qizi,*

*Suyunova Muxlisa Olimjon qizi,*

*Boboqulova Shoxista Axmatillo qizi*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsiya fakulteti,*

*Samarqand, O'zbekiston.*

**Ishning dolzarbligi.** Hozirgi kunda dori vositalarining ko'pchiligi ksenobiotiklarga kirib, organizmda zararli moddalarni hosil qilishi mumkin. Ular allergen, mutagen, kanserogen yoki sitotoksik ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli tabiiy dori vositalar va xalq tabobati yordamida davolashga ko'proq ehtiyoj ortib bormoqda.

**Ishning maqsadi.** Aholi orasida keng tarqalgan me'da-ichak kasalliklarini o'lkamizning barcha joylarida uchraydigan tabiiy o'simlik dorivor zubturum bilan davolashga qaratilgan.

**Tekshirish usullari.** Samarqand shahar 2-Oilaviy poliklinikasida ro'yxatda turuvchi, oshqozon-ichak kasalliklari bilan kasallangan 42 nafar, 28 (66.67%) erkak, 14 (33.33%) ayol bemorlar tekshirishdan o'tkazildi. Bemorlar yoshi 23 yoshdan 48 yoshgacha. Asosiy guruhidagi bemorlarga standart davolash vositalari bilan birgalikda, kuniga bir mahaldan 10 kun davomida zubturum bargi damlamasi berib borildi va ulardagi o'zgarishlar kuzatildi.

**Tekshirish natijalari.** Asosiy guruhidagi bemorlar yoshi va jinsiga qarab guruhlariga bo'lindi, 23-30 yoshgacha bo'lgan bemorlar (63,34%), 30-48 yoshgacha bo'lgan bemorlar (36,66%) ajratildi. Asosiy guruhdagi 23-30 gacha bo'lgan (63,34%) bemorlarning sog'ayish darajasi zubturum bargi damlamasi qabul qilinganda nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan ikki marta tezroq kuzatildi, 30-48 yoshgacha bo'lgan (36,66%) bemorlarning sog'ayish darajasi zubturum bargi damlamasi qabul qilinganda nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan bir yarim marta tezroq kuzatildi. Nazorat guruhdagi bemorlarda esa statsionarda davolanish asosiy guruhdagi bemorlarga nisbatan cho'zildi.

**Tayyorlash texnologiyasi.** Uy sharoitida zubturum bargidan oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash uchun damlama tayyorlash mumkin. Buning uchun zubturumning 5-6 ta barglarini soya joyda quritib, 1 stakan qaynagan suvga solib, 1 soat damlanadi. Suzib, 3-4 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi. Oshqozon kislotaliliga pastligi bilan kechuvchi gastritda zubturum urug'idan qaynatma tayyorlanadi: 2 osh qoshiq urug'ni 1 stakan qaynagan suvga solib, past olovda 10 daqiqa qaynatiladi. Suzib, kuniga 1 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi.

**Xulosa.** Zubtutum bargi damlamasi oshqozon-ichak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga asosiy dori vositalari bilan birga kuniga bir mahaldan 10 kun davomida berib borildi va ulardagi o'zgarishlar quyidagicha bo'ldi: asosiy guruhdagi bemorlarning sog'ayish darajasi zubtutum bargi damlamasi qabul qilinganda nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan bir yarim, ikki marta tezroq kuzatildi. Nazorat guruhdagi bemorlarda esa statsionarda davolanish asosiy guruhdagi bemorlarga nisbatan cho'zildi. Zubtutum bargi damlamasining bemorlar sog'ayishi uchun ijobiy ta'siri aniqlandi.

